

## MAMLAKAT MOLIYA-BUDJET TIZIMI BARQARORLASHTIRISHNI TIZIMLASHTIRISH

*Mamayusupova Shohina Ulug'bek qizi*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti 3-bosqich talabasi*

[Shahinamamayusupova28@gmail.com](mailto:Shahinamamayusupova28@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakat byudjet tizimining hamda moliyaviy siyosatning mamlakat miqyosidagi ahamiyati va ro'li keltirilgan. Shuningdek, moliya- byudjet tizimining ko'rsatkichlari va soliqlar tushumi, aynan bevosita hamda bilvosita soliqlar miqdorining 2023-2024 yillar kesimidagi ulushi keltirilgan. Bundan tashqari mamlakat hamda xalqaro miqyosidagi olimlarning moliya, byudjet siyosati hamda tuzilish tarkibi haqida ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Mamlakat miqyosida moliya va byudjet tizimi hamda siyosatini barqarorlashtirish to'g'risida ko'plab xulosa va takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy siyosat, globallashtirish, taraqqiyot, barqarorlashtirish, konsepsiya, tizim, bevosita va bilvosita soliqlar.

### **Kirish:**

Moliyaviy siyosat qo'yilgan maqsadlarni hayotga tatbiq etish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni tashkil etishda asosiy ro'l o'ynaydi. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish jarayoni va hayotga tatbiq etishda u jamiyat oldida turgan vazifalarni bajarish sharoitlarini taminlab, iqtisodiy manfaatlarga ta'sir ko'rsatadigan qurol sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o'rtasida qayta taqsimlash va bosh yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barkarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyorida moliya resurslarini markazlashtirishdan iborat. Moliyaviy siyosat o'z-o'zini bosib turuvchi mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy tasavvurdagi "moliya" tushunchasi podsholar xazinasidan davlat xazinasiga ajralib chiqishi bilan paydo bo'lgan. Bir paytning o'zida shuni alohida qayd etish kerakki, jamiyatda pul, tovar-pul munosabatlari va davlatning paydo bo'lishi o'zo'zidan darhol moliyaning ham vujudga kelganligini bildirmaydi. Ular hammasi bir paytda, ya'ni birdaniga paydo bo'lgan emas. Moliya shakllanib, bizning u haqidagi bugungi tasavvurimizdagi moliya ko'rinishiga kelishi uchun jamiyatda bir qator shartsharoitlar pishib yetilgan bo'lishi kerak. Ular quyidagilar: 1. Asrlar davomida davlat ixtiyoriga yig'iladigan barcha pul mablag'larining mutloq egasi qirol (sharqda podsho), deb hisoblanilgan. Mablag'lar qirol xohish-ixtiyori bilan yig'ilgan va u xohlagan shaklda xarajat qilingan. O'sha davrlarda odamlar tasavvurida daromadlarni ishlatish bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasday tuyular edi. XVI–XVII asrlarda Niderlandiya va Angliyada yuz bergan birinchi burjua inqiloblari moliyaning shakllanishiga juda katta turtki bergan. To'g'ri, mazkur inqiloblar qirollik tuzumini ag'darib tashlay olmadi. Lekin shunday bo'lsa-da, qirolning hokimiyatini ancha cheklashga erishildi va biz uchun eng



muhimi qirolning xazinaning mutloq egasi sifatidagi huquqi keskin qisqartirildi. Yangi sharoitda xazina o'rniga umumdavlat pul mablag'lari fondi, zamonaviy til bilan aytganda, byudjet tashkil etila boshlandi. Qirolning xazinasi o'rniga davlat byudjeti tushunchasining kirib kelishi moliyaning shakllanishi va zamonaviy ko'rish olishida o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan inqilobiy o'zgarishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda Markaziy Yevropa davlatlarida xazinani tasarruf etish sohasida yuz bergan bunday o'zgarishlar dunyoning juda ko'p davlatlarida, xususan, O'rta Osiyoda ommalashmaganligini e'tirof etish zarur. O'z taraqqiyoti davrida kapitalistik tuzumni bosib o'tmagan mazkur davlatlarda podshohlar xazinaning mutloq egasi bo'lib qolaverganligi va muomalaga davlat byudjeti tushunchasi kirishi podshohlik hokimiyatining bekor qilinishiga qadar hal bo'lmaganligini tabiiy hodisa sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi. [1]

Davlat byudjeti daromadlari tarkibini asosan soliqlar va turli to'lovlar, harbiy o'lja va kontributsiyalar tashkil etgan bo'lsa, o'sha paytdayoq xarajatlar moddalarining hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan yo'nalishlari shakllandi: harbiy xarajatlar, iqtisodiyot, boshqaruv hamda ijtimoiy maqsadlarga ajratilgan mablag'lar tashkil etadi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi sifatida davlatning byudjet siyosati, eng avvalo, har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida hamda qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlari funksiyalarini belgilovchi boshqa qonunlarmajmuiga muvofiq aniqlanadi deya ta'kidlanadi. O'zining hajmi va muhimligi jihatidan katta ish bo'lishiga qaramasdan byudjet siyosatini faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Qonun byudjet jarayonida hokimiyatdagi qonunchilik va ijroiya organlari funksiyalarini, mamlakat subyektlari funksiyalarini, byudjet federalizmi prinsiplarini, byudjet jarayoni subyektlarining huquq va majburiyatlari va boshqa majburiyatlarni aniq belgilashi kerak bo'ladi. Biroq byudjet siyosati shu bilan cheklanmaydi. Byudjet siyosati byudjetda to'planadigan yalpi ichki mahsulot hissasini aniqlashda, mamlakat yuqori va quyi organlari munosabatlarida, byudjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlashda hamda davlatqarzini boshqarishda, byudjet defitsitini qoplash yo'llarini aniqlashda ifodalanadi deya ta'kidlanadi. [2]

Byudjet kodeksi ishlab chiqishda dunyodagi iqtisodiy jihatdan tez sur'atlar bilan o'sishga erishayotgan, ijtimoiy himoyasi kuchli bo'lgan davlatlar tajribasi o'rganildi. Bunda asosiy o'rinda xalqaro standartlar asosida davlat byudjeti taqsimotini ommaviy e'lon qilish, undagi parametrlarning, ya'ni huquqlarning kengaytirilishi, xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqlashtirish, byudjetni o'rta muddatlarga rejalashtirish, byudjet mablag'lari ishlatilishi natijalarini tahlil qilish, byudjet tashkilotlari tekshiruvini tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Byudjet kodeksi asosida byudjet tizimining huquqiy mexanizmi takomillashtirildi va unifikatsiya qilingan holda, rivojlangan mamlakatlarda o'zini oqlab kelayotgan davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy usullari shakllantirildi.

### **Adabiyotlar sharhi:**

Yangi iqtisodiyotni belgilaydigan umumiy ta'rif Davies va boshqalar tomonidan berilgan. Ushbu ta'rifda Yangi Iqtisodiyot AQShning so'nggi yillardagi favqulodda iqtisodiy ko'rsatkichlari natijasida yuzaga kelgan yangi paradigma sifatida ifodalanadi va texnologik o'zgarishlar, globallashuv, mahsulot va mehnat bozorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar ushbu rivojlanayotgan paradigmanning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqiladi. Atkinson va Kortga ko'ra, Yangi Iqtisodiyot so'nggi 15 yil ichida AQSh iqtisodiyotining tuzilishi, funktsiyalari va qoidalarini o'zgartirgan bir qator sifat va miqdoriy o'zgarishlar bilan bog'liq va bu o'zgarish va iqtisodiy o'sishning asosiy omillari innovatsiondir. g'oyalar va texnologik taraqqiyot. Gordon 90-yillarning o'rtalarida kompyuter texnikasi, dasturiy ta'minoti va telefon xizmatlari narxlarining pasayishi, kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash



va aloqa sig'imining oshishi va Internetning jadal rivojlanishiga nisbatan "Yangi iqtisodiyot" kontseptsiyasidan foydalanadi.[3]

Moliyaviy siyosatni professorlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlar quyidagicha ta'riflaganlar: "Takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo'naltiriladigan maqsad va vazifalarning yechilishini aniqlashga moliyaviy siyosat deyiladi".[4]

Byudjet kodeksi barcha manfaatdor taraflarni byudjet tizimi va byudjet jarayoni to'g'risidagi keng qamrovli hamda ishonchli axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Bu axborot davlat byudjetini ishlab chiqish va ijro etish bilan shug'ullanayotgan hukumat uchungina emas, balki Oliy Majlis, mahalliy hokimiyat organlari, byudjet tashkilotlari va barcha fuqarolar uchun ham muhimdir. Byudjet kodeksi mintaqalarda resurslarni qayta taqsimlash va ularning daromad salohiyatini mustahkamlashning barqaror hamda samarali mexanizmini ta'minlashga qaratilgan. Byudjet tashkilotlari uchun bu – byudjetlarni tuzish va ijro etish hamda ular oldiga

qo'yilgan vazifalarni bajarishning aniq va ravshan qoidalaridir, - deya ta'kidlaydi O. G'aybullaev, U. O'roqovlar.[5]

Ingliz iqtisodchisi Harvey Rosenning fikricha, jamoat mulki ikki xususiyatga ega. Birinchidan, bir marta taqdim etiladigan, boshqa shaxs iste'mol qo'shimcha xarajatlar tovar nolga teng - iste'mol raqobatdosh emas. Ikkinchidan, hech kimning yaxshilikni iste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslik juda muhimdir qimmat yoki imkonsiz - iste'molni istisno qilib bo'lmaydi. Jamoat farovonligining klassik namunasi milliy mudofaadir. Bir shaxsning armiya tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishi boshqa odamning iste'molini kamaytirish uchun hech narsa qilmaydi. Bundan tashqari, har qanday shaxs bundan mustasno. Milliy mudofaa foydasidan olish mumkin emas. Bundan farqli o'laroq, shaxsiy tovar (masalan, oziq-ovqat) ham raqibdir, ham istisno qilinishi mumkin deya ta'kidlaydi. [6]

Sodiqova Nigora To'rayevna kiriga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda elektron moliyadan foydalanish uchun telekommunikatsiya, aktsiyalar, elektron operatsiyalarva axborot infratuzilmasi sohalarida yangi yondashuvlarni yaratish va bu sohada ko'plab tartibga solishni amalga oshirish kerak. Shu maqsadda mijozlar va investorlar uchun xavflarni minimallashtiradigan qoidalarni ishlab chiqish orqali bozorlar samaradorligini oshirishga harakat qilish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning moliya sektoriga aralashuvi odatda salbiy oqibatlariga olib keladi. Masalan, banklarning davlat qo'lida to'planishi moliya sektorining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va qaysidir ma'noda inqirozlar uchun sharoit tayyorlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim imkoniyatlarni olib keladigan elektron moliyadan maksimal darajada foydalanish uchun ba'zi qoidalar va institutlarni qayta tartibga solish kerak[7]

### **Tahlil va natijalar:**

Byudjet tuzilishi davlat byudjeti va mamlakat byudjet tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, byudjet tizimiga kiruvchi byudjetlarning faoliyat yuritishi, huquqiy asoslarini, byudjetlarning tarkibi va tuzilishini, byudjet mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartib-tamoyillari va hokazolarni belgilaydi. Mamlakatlarning davlat tuzilishidagi, hokimiyat turli darajalarining byudjet huquqlaridagi farqlar turli shakldagi va modeldagi byudjet tuzilishlari mavjudligini belgilaydi. Byudjet tuzilishining markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chiqarilgan va aralash modellari mavjud hisoblanadi.

Byudjet kodeksining qabul qilinishi davlat moliyasining xalqaro standartlarga mos keluvchi, yagona unifikasiyalashgan qonunchilik bazasi yaratilishiga olib keldi. Unda nazarda tutilgan me'yorlar va qoidalar byudjet jarayonining barcha bosqich va darajalarida yagona huquqiy normalar qo'llanilishini




va bir xil yondashuvni ta'minlash orqali byudjet jarayonining hamma ishtirokchilari ishini yengillashtirishga qaratilgan. Ushbu kodeks nafaqat moliya, g'aznachilik yoki nazorat-taftish organlari xodimlari uchun, balki byudjet jarayonida bevosita ishtirok etuvchi mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakillari uchun ham muhim hujjat bo'lib hizmat qiladi.

**1-Rasm: 2022-2023 yillarda Davlat byudjeti daromadlari tuzilmasi, (trln so'm)**



2023 yilda Davlat byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 100,4 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 233,6 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 31,7 mlrd so'mga yoki 15,7 foizga ko'p. Jumladan, Soliq qo'mitasi tomonidan undiriladigan soliqlar orqali 167,1 trln so'm daromadlar shakllantiriladi hamda Bojxona qo'mitasi bo'yicha 56,7 trln so'm mablag'lar byudjetga undiriladi. [7]

**2-Rasm: Bilvosita soliqlar, (trln so'm)**



Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 3,3 trln so'm kam yoki 96,3 foizga bajarilib, haqiqatda ijrosi 85,9 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 14,5 trln so'mga yoki 20,3 foizga ko'pligi kutilmoqda. [8]

Mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakillari o'zlari vakil bo'lgan hududlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqishlari, qabul qilishlari, tasdiqlashlari va ijrosi



yuzasidan hisobotlarni qabul qilish ularining eng asosiy vakolatlari hisoblansa-da, so‘rovnomada ishtirok etgan mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakillarining javoblaridan ular byudjet jarayonidagi vakolatlaridan amalda ham foydalanmasliklari ma'lum bo‘ladi.

### **Xulosa va takliflar:**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, har bir davlatning iqtisodiy taraqqiy etishi davlat byudjeti hamda moliya tizimining barqarorlashuviga bevosita hamda bilvosita bog‘liq hisoblanadi. Moliyaviy tizimi zaif rivojlanayotgan mamlakatlarning transformatsiyadan foyda olish qobiliyati bir qator chora-tadbirlar va tadqiqotlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, aloqa infratuzilmasini takomillashtirish, risklarni boshqarishni institutsionallashtirish va raqobat siyosatini aniq taqdim etish rivojlanayotgan mamlakatlarning zaif moliyaviy bozor tuzilmalarini mustahkamlaydi va moliya bozorlarini yanada samarali qiladi deya ta’kidlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Malikov T. Haydarov N. Byudjet (tizimi tuzilmasi, jarayoni). –T.: «Iqtisod-moliya», 2007 y., 7-bet
2. T.Y. O‘roqov, N.M.Anvarov „Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati” 2022
3. Sodiqova Nigora To‘rayevna „Yangi iqtisodiyot va uning moliya bozorlariga ta'siri” 2024
4. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni: o‘quv qo‘llanma O. G‘aybullayev, U. O‘roqov. - Toshkent: Baktria press, 2015- 168 b
5. Rosen, H.S. (2004). Davlat moliyasi. In: Rowley, C.K., Schneider, F. (tahrirlar) The Encyclopedia of Public Choice. Springer, Boston, MA. [https://doi.org/10.1007/978-0-306-47828-4\\_21](https://doi.org/10.1007/978-0-306-47828-4_21)
6. I.D.Petrenko, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev, I.I.Ayubov (Moliya va soliqlar) darslik Samarqand 2022y 7-bet
7. Byudjetoma 2022-2026 yillar kesimida
8. Stat.uz

